

**ABDULLA QAHHOR “DAXSHAT” HIKOYASINING BADIY
TAHLIL METODIKASI**

Eraliyeva Noira

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti Namangan shahar
2-son texnikumi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasini badiiy tahlil qilish metodikasi yoritilgan. Hikoyaning g‘oyaviy mazmuni, obrazlar tizimi, psixologik tasvir vositalari hamda asarni ta’lim jarayonida o‘qitish usullari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, hikoyani o‘qitishda samara beruvchi “Atamalar izohi”, “SWOT-tahlil”, “Muammoli vaziyat” singari metodlar batafsil izohlangan.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qahhor, konflikt, epik asar, “Atamalar izohi”, “SWOT-tahlil”, “Muammoli vaziyat”, personaj, dodxo, Unsin

Abstract: This article describes the methodology for the artistic analysis of Abdulla Qahhor's story "Dahshat." The ideological content of the story, the system of images, the means of psychological depiction, and the methods of teaching the work in the educational process have been scientifically and methodologically analyzed. Methods such as "Explanation of Terms," "SWOT Analysis," and "Problematic Situation," which are effective in teaching the story, are also explained in detail.

Keywords: Abdulla Qahhor, conflict, epic work, "Explanation of terms," "SWOT analysis," "Problematic situation," character, dodho, Unsin

Аннотация: В данной статье освещается методика художественного анализа рассказа Абдуллы Каххара "Ужас". С научно-методической точки зрения проанализированы идейное содержание рассказа, система образов, средства психологического изображения и методы преподавания произведения в образовательном процессе. Также подробно описаны такие эффективные методы обучения рассказу, как "Толкование терминов," "SWOT-анализ," "Проблемная ситуация."

Ключевые слова: Абдулла Каххар, конфликт, эпическое произведение, "Толкование терминов," "SWOT-анализ," "Проблемная ситуация," персонаж, додхо, Унсин

KIRISH

O'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Abdulla Qahhor XXasr o'zbek hikoyachiligining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan adib sanaladi. Adibning "Daxshat" hikoyasi o'zbek nasrining eng sara namunalari qatoriga kiradi. Ijodkorning ko'plab asarlari, xususan, "Daxshat" hikoyasining o'ziga xos xususiyatlari, badiiy-estetik qimmati, ijtimoiy ahamiyati adabiyotshunoslar tomonidan ko'p tadqiq etilgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Abdulla Qahhor "Daxshat" hikoyasining badiiy-g'oyaviy xususiyatlari, adibning uslubiy jihatlarini aniqlash hamda o'quvchilarga o'rgatish usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Abdulla Qahhor ijodini zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish va o'rgatish metodikasini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Bunday tadqiqot o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasini to'liqroq yoritishga adabiy merosimizni chuqurroq anglash yo'llarini tadqiq etishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Ozod Sharafiddinovning “Abdulla Qahhor” monografiyasida, Matjon Qo‘shjanovning “Abdulla Qahhor mahorati” nomli tadqiqotida yozuvchining hikoya janridagi yutuqlari, uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan. Umurzoq Normatovning “Qahhor nafosati” kitobida ijodkorning badiiyati, hikoyalarining estetik qimmatini ochib berilgan.

Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, Abdulla Qahhor hikoyalaridagi qisqalik, lo‘ndalik, teran ma‘no, o‘tkir konflikt, so‘z tanlashdagi aniqlik kabi jihatlari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan e‘tirof etilgan. Biroq adib hikoyalarining badiiy tahlil metodlari haqida yetarlicha ma‘lumotlar tadqiq etilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijasida Abdulla Qahhor “Daxshat” hikoyasining badiiy tahlil metodikasiga oid nazariy va amaliy usullar aniqlandi. Adibning “Daxshat” hikoyasida ko‘tarilgan ijtimoiy muammo va insoniy tuyg‘ular uyg‘unligi kitobxonni chuqurroq o‘ylashga va fikrlashga undaydi. Ularni sodda tilda yangicha yondashuv asosiy vazifasidir. Adabiy ta‘limda “Daxshat” hikoyasini o‘quvchilarga o‘rgatishda “Atamalar izohi”, “SWOT-tahlil”, “Muammoli vaziyat” metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

“Atamalar izohi” metodi. Ushbu metod orqali hikoyadagi hozirgi kunda eskirib qolgan dodxo, halqa, bo‘yra, sag‘ana, qumg‘on, paranji-chimmat kabi so‘zlarni doskaga yozib, izohlab beriladi. Masalan, dodxo-qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor; halqa-Islom dini va Qur‘on ilmlarini o‘rganish uchun odamlar aylanib o‘tirib o‘tkazadigan yig‘in, dars; bo‘yra-asosan tozalangan qamishdan to‘qiladigan qadimiy to‘shama; sag‘ana-qabrlar ustiga qo‘yiladigan maxsus usti yopiq daxma, sag‘ana toshi yoki maqbara ma‘nosini anglatadi; qumg‘on- choy idish; ichi qalay bilan oqartirib misdan

yasalgan dastali, qopqoqli (baʼzan qopqoqsiz), joʻmrakli idish; paranji-koʻpchilik musulmon ayollarining yopinchi; chachvon bilan birga ansambl hosil qilgan.

Muammoli vaziyat metodi. Ushbu metod oʻquvchilarni teran fikr yuritishga va muammolarni hal qilishga oʻrgatadi. Nega asar “Daxshat” deb nomlangan? Nima uchun Unsin dodxo uyida yashashdan goʻristonga borishni Afzal biladi? Nima Unsinga jurʼat bagʻishlaydi? Singari muammoli savollarga oʻquvchilar javob izlashadi va shu orqali mushohada qilishadi.

“SWOT-tahlil” metodi. Bu metod orqali asardagi obrazlarni tahlil qilish mumkin. Unsin obrazini tahlil qilishda ushbu metoddan foydalanish yaxshi samara beradi. S(strength-kuchli jihatlar) Unsin yosh va jurʼatli ayol. W(weakness- zaif, kuchsiz jihatlar) oʻz erki qoʻlida boʻlmagan ojiza ayol ekanligi. O(opportunity- imkoniyatlari) juda xavfli shart bajarib erkin boʻlish imkoniyati bor edi. T(threat- xavflar) Unsinning qoʻrquvdan vafot etishi. Bu usul orqali har bir oʻquvchi asar qahramoniga nisbatan oʻz fikr mulohazalarini bildiradi.

XULOSA

Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi — oʻzbek adabiyotidagi psixologik-realistik yoʻnalishdagi eng yorqin asarlardan biri boʻlib, unda yozuvchi jamiyatdagi adolatsizlik, ayolning jamiyatdagi mavqei, ruhiy bosim ostidagi ichki kurash va insoniy jasoratni chuqur tahlil qiladi. Asarda Unsin obrazi orqali oʻz hayotini nazorat qilishga uringan, ijtimoiy meʼyorlarga zid ravishda ozodlikka intilgan ayol timsoli gavdalantiriladi. Bu timsol orqali Abdulla Qahhor oʻzbek ayolining nafaqat sabrli, balki kurashuvchan, jasoratli, oʻzining ruhiy ozodligini istagan kuchli shaxs sifatida tasvirlaydi. Bu asarni va yuqoridagi fikrlarni oʻquvchilarga yetkazishda badiiy tahlilni rivojlantiruvchi metodlardan boʻlgan “Atamalar izohi”, “SWOT-tahlil”, “Muammoli vaziyat” singari taʼlimiy usullar yaxshi samara berishi kuzatib chiqildi. Hikoyaning shu yoʻsinda tahlili oʻquvchilarga uning zamiridagi hayotiy, badiiy mantiqni toʻlaroq anglash va matnning jozibasini tuyish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahhor, A. Daxshat. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
2. Husanboyeva, Q. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. - Toshkent: Barkamol-fayz media, 2018
3. To'xliyev, B. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi - Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
4. Zunnunov A. Pedagogik mahorat va adabiy ta'lim. — Toshkent: Fan, 2009.
5. Umurov H. Badiiy asarni tahlil qilish metodikasi. — Toshkent: Tafakkur, 2015.
6. Mirzayev S. O'zbek adiblari haqida maqolalar. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.